

IJTIMOY TARMOQLARDAGI AXBOROTLARNI IDROK ETISH BORASIDA KOGNITIV YONDASHUVLAR TAHLILI

Jabbor Alisher Musirmon o'g'li

TMC instituti dotsenti, psi.f.b.f.d (PhD)

QarDU tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15023803>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni o'rganishda kognitiv yo'nalishlarning o'ziga xosligi va ularning foydalanuvchilar tomonidan axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayoniga ta'siri tahlil qilingan. Maqolada kognitiv yo'nalishlarning asosiy turlari, ularning salbiy oqibatlari va ta'sirini kamaytirish usullari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Ijtimoiy tarmoqlar, kognitiv yo'nalishlar, tasdiqlash tarfakshligi, haqiqat illyuziyasi, media savodxonligi, tanqidiy fikrlash.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatda axborot almashinuvi va muloqotning asosiy platformalaridan biriga aylangan. Biroq, ushbu platformalarda tarqatilayotgan axborotlarning ishonchligi va foydalanuvchilarning ularni qabul qilish jarayonida kognitiv yo'nalishlarning roli dolzarb masalalardan biridir. Ushbu tezisda ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni o'rganishda kognitiv yo'nalishlarning o'ziga xosligi tahlil qilinadi. Shu bois ham, virtual olam ta'siridan yoshlarni himoyalash, ularning zamonaviy axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish, inson ongiga ta'sir etuvchi salbiy axborot oqimining o'ziga xosliklarini ilmiy o'rganish, virtual olamga tobe bo'lishning psixologik, pedagogik sabab va oqibatlarini aniqlashtirish, shuningdek, virtual olamga bog'lanib qolishning salbiy oqibatlari yuzasidan, ta'lim muassasalarida keng qamrovli tashviqot ishlarini olib borish, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar turkumidan biridir.

Kognitiv psixologiya insonning bilish jarayonlarini, ya'ni xotira, e'tibor, idrok, fikrlash va qaror qabul qilish kabi faoliyatlarini o'rganadi. Kognitiv yo'nalishlar esa, insonning axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayonida yuzaga keladigan tizimli xatolar yoki og'ishlardir. Masalan, tasdiqlash tarfakshligi (confirmation bias) odamlarning o'z e'tiqodlariga mos keladigan ma'lumotlarga ko'proq e'tibor berishlari va qarama-qarshi ma'lumotlarni e'tiborsiz qoldirishlari bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarga katta hajmdagi axborotlarni tezkorlik bilan taqdim etadi. Bunday sharoitda kognitiv yo'nalishlar kuchayishi mumkin. Masalan, foydalanuvchilar ko'pincha o'zlarining mavjud e'tiqodlariga mos keladigan ma'lumotlarni izlashadi va ularga ishonishadi, bu esa tasdiqlash tarfakshligini kuchaytiradi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumotlarning qayta-qayta uchrashi haqiqat illyuziyasi effektini keltirib chiqarishi mumkin, ya'ni odamlar takrorlangan ma'lumotlarni haqiqat deb qabul qilishadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda kognitiv yo'nalishlarning mavjudligi bir qator salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin:

- Noto'g'ri qarorlar qabul qilish: Noto'g'ri ma'lumotlarga asoslangan qarorlar shaxsiy va ijtimoiy darajada salbiy natijalarga olib kelishi mumkin.

- Ijtimoiy bo'linish: Foydalanuvchilar faqat o'z e'tiqodlariga mos keladigan ma'lumotlarni iste'mol qilishlari ijtimoiy guruhlar o'rtasida bo'linishlarni kuchaytirishi mumkin.

• Yolg'on axborotlarning tarqalishi: Kognitiv yo'nalishlar tufayli foydalanuvchilar yolg'on axborotlarni haqiqat deb qabul qilishlari va ularni boshqalarga tarqatishlari mumkin.

Analitik falsafa vakillari L. Vitgenshteyn, R. Karnap, J. Ostin, B. Rassel, V.P. Rudnevlar esa tilning ilmiylik chegarasi masalasiga o'z e'tiborlarini qaratadilar. Ularning fikricha, til borliqni o'zlashtirishdagi muhim ma'naviy-ruhiy vositadir. Jumladan, L. Vitgenshteyn o'z traktatida tilni umumiy ma'noda fenomenologik hodisa deb ta'kidlaydi. Bunda tilning ayrim boshqa ma'lumotlar-tanishuv obyektlari bilan birgalikda ish olib borishi ko'zda tutiladi.

Boshqa tahlilchi faylasuflar, masalan, Gilbert Rayl axborotlar tahlilini birmuncha konstruktiv ravishda qo'llaydi. Matndagi tushunchalarimizning idrok etilgan tarzdgagi birlashish usullarini tushuntirish bilan til va fenomenlarning aslida nimadan iborat ekanligini ancha aniqroq anglab olishimiz mumkin.

Bunday uslub shunday faraz qiladiki, tahliliy jihatdan idrok etilgan tajriba yordamida biz qanday tushunchalarning birlasha olishi mumkin emasligini aniqlashga harakat qilamiz.

I.A.Nikolaevning yozishicha, mazkur "olam" mazmunida inson o'z haqiqiy dunyosiga o'xshash yoki undan juda farq qiluvchi ko'plab taqlid qilinadigan tajribalarni boshdan kechirishi mumkin. Virtual olam vositalari o'yin-kulgi (ayniqsa, video o'yinlar), ta'lim va o'qitish (til o'rganish, ta'lim olish) va biznes masalalari (masalan, virtual uchrashuvlar, yangi loyihalar) kabilarni o'z ichiga olgan texnologik majmualar to'plamidir.

"Web-canape" statistik saytida keltirilishicha, hozirgi kunda dunyo aholisining 56, 4 foizi ochiq axborot tizimlaridan turli maqsadlarda foydalanishadi. Jumladan, 2021 yilning yanvar holatiga ko'ra, dunyodagi jami aholining (7,83 mlrd.) 66,6 %i mobil aloqadan, 59,5 %i internetdan va shuningdek 53,6 %i ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib, butunjahon pandemiya sharoitida ularning aksariyati, ayniqsa, yoshlar o'zlarining asosiy vaqtlarini ochiq axborot tizimlariga sarflashmoqda. Internetdan foydalanish bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori natijani qayd etgan mamlakatlar reytingida dastlabki o'rinni Filippin (10 s. 56 daq.) oxirini AQSh (7 s. 11 daq.) tashkil etgan. Quyi natijani esa, avvaliga Vetnam (6 s. 47 daq.) va oxirini Yaponiya (4 s. 25 daq.) mamlakatlari qayd etishgan.

A. N. Leontev matnning qabul qilinishida matnning mazmuniy tarkibi bosqichma-bosqich sintez qilinar ekan, bu sintez nutqiy zanjirning idrok etish tahlili hamda bunga parallel ravishda kechuvchi mazmuniy tahlil asosida amalga oshadi deydi. Leontev matn mazmunini shunday aniqlaydi: mazmun har bir individning jamiyat tajribasini ijtimoiy kodlashtirgan shaklda o'zlashtirishdir. Mazmunni o'zlashtirish-bu individual faoliyat bilan jamiyat tajribasining muvofiqligini aniqlovchi vositadir.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlarda axborotlarni o'rganishda kognitiv yo'nalishlarning o'ziga xosligi muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo'nalishlar foydalanuvchilarning axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, kognitiv yo'nalishlarning salbiy ta'sirini kamaytirish uchun media savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va axborot tekshirish platformalaridan foydalanish kabi choralar ko'rilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Heidegger M. Being and time. Moscow.,1993. – P.36.
2. Гилберт Р. Понятие сознания. Идея-пресс.,2000. – С.408.
3. Carrol David W. Psychology of language. California.,1998. – P.84-89.